Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

6. www.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti
7. https://commonslibrary.parliament.uk Buyuk Britaniya parlamentining Quyi palatasi (House of Commons) rasmiy sayti

QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`I TO`LOVCHILAR SONI VA BYUDJETGA TUSHUMLAR SAMARADORLIK KO`RSATKICHLARNING TAXLILI

Urazmatov Jonibek Musurmanovich
Guliston davlat universiteti dotsenti v.b (PhD)
jonibei1186@gmail.com

Annotatsiya. Jahonda keyingi yillarda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to`lovchilar soni va byudjetga tushumlar samaradorligi masalalariga qaratilgan ilmiy izlanish hamda maqolalarga alohida e'tibor berilmoqda. Byudjet-soliq siyosatining o‘zaro uyg‘unligini ta'minlash, soliq ma'murchiligini bugungi kun talablariga moslashtirish, qo‘shilgan qiymat solig‘ining byudjet daromadlarini shallanishidagi o‘rnini kuchaytirish, «uzluksiz qo‘shilgan qiymat zanjiri»ni vujudga keltirish, qo`shilgan qiymat solig`ini to`lovchilar sonining oshishi yoki kamayishi, soliq tushumlarining samaradorlik ko`rsatkichlari kabi masalalar ushbu maqolaning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

**Kalit so`zlar.** Qo`shilgan qiymat solig`ini to`lovchilar sonining oshishi, byudjet daromadlari, tushumlarining samaradorlik ko`rsatkichlari, soliq siyosatining iqtisodiy samaradorligi, QQSdan tushumlarning O‘zbekiston Respublikasi, QQSdan tushumlar davlat byudjeti daromadlari shakllanishi.

Iqtisodiyotning erkinlashuvi jarayonida, qo‘shilgan qiymat solig‘i to`lovchilar soni oshishi yoki kamayishi, byudjetga tushumlarning samaradorligini ta`minlashni tashkil etishda soliq salohiyatini oshirish muammolarining keskinlashuvini yuzaga keladi. Bugungi kunda ko‘plab munozaralarga sabab bo‘layotgan soliq tizimi islohining alohida bir yo‘nalishi sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq to`lovchilar soni va byudjetga tushumlar samaradorligini kompleks-maqsadli dasturi va prognozini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.


“O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha soliq organlari faoliyatidagi eng ustuvor vazifalar, soliq to‘lovchilar bilan manzilli ishlashni tashkil qilish orqali soliq bazasini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bugun jadallik bilan amalga oshirilmoqda va buning natijasida byudjet soliq tushumlarining o`z vaqtida tushishi ta`minlanmoqda.

O`zbekiston Respublikasi soliq qo`mitasining ma`lumotlariga qaraganda qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchilar sonini 2023 yil mos davriga nisbatan 2024 yilda hududlarda soliq to`lovchilar soni o`sidhini kuzatishimiz mumkin.

(1-rasm) [3]

[3] O`zbekiston Respublikasi soliq qo`mitasi.

Published: 23.12.2024
Cite this article: Urazmatov Jonibek Musurmanovich (2024). Qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchilar soni va byudjetga tushumlar samaradorlik ko`rsatkichlarning taxlili. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/940
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.



O`zbekiston Respublikasida qo`shilgan qiymat soliq to`lovchisi sifatida maxsus ro`yxatdan o`tgan to`lovchilar soni o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2024 yilda 201 331 nafarni tashkil qilib, 4,8 foizga o`sishni kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, hududlar kesimida qo`shilgan qiymat soliq to`lovchisi sifatida maxsus ro`yxatdan o`tgan to`lovchilar soni Toshkent shaharda 8,6 foizga, Toshkent viloyatida 8,3 foizga, Navoiy viloyatida 6,6 foizga, Samarqand viloyatida 6,3 foizga va Sirdaryo viloyatida 5,2 foizga o`sih kuzatilgan.


Qo`shilgan qiymat solig`ining soliq to`lovchilar sonini sohalara kesimida kuzatadigan bo`lsak, transport sohasida 13,1 foizga, xizmat ko`rsatish sohasida 10 foizga, axborot va aloqa xizmati sohasida 8,4 foizga, qurilish sohasida 5,0 foizga va sanoat sohasida 5,2 foizga o`sganligini soliq sohasidagi olib borilayotgan islohotlarning natijasidan dalolat bermoqda.

Qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchilar soni o`shib borishi ayniqsa sohalar kesimida ham o`shib borishi quydagi mezonlarga ijobiy ta`sir etadi:

- Soliq tushumlarining davlat byudjetdagi ulushuning ortishiga;
- Uzluksiz soliq zanjirining mustahkamlanishiga;
- Noqonuniy tovar aylanmasiga chek qo`yilishiga;
- Soliq hisobotlarining tahliliga;

(2-rasm) [4]

[4] O`zbekiston Respublikasi soliq qo`mitasi.




O`z navbatida qo`shilgan qiymat soliq to`lovchilari soni oshib borishi bilan bir qatorda, 2024 yilda o`tgan yilning mos davriga nisbatan respublika miqiyosida 18 494,5 mlrd so`m soliq to`lovchilarga qo`shilgan qiymat solig`i so`mmasi qaytarilgan bo`lib, ishlab chiqarish sanoatida 12 220,8 mlrd so`m, xizmat ko`rsatishda 2 643,3 mlrd so`m, savdo korxonalariga 1 098,3 so`m to`g`ri kelmoqda.

Bu o`z navbatida korxonalar ixtiyoriga qolgan so`mmalar hisoblanib, ularni kelajakda yanada rivojlanib ketishiga va sof raqobatni yuzaga keltiradi.

O`zbekistonda 2024 yil III chorak davomida byudjetga tushgan soliq turlarining ulushi to`g`risida.[5]

[5] O`zbekiston respulikasi soliq qo`mitasi ma`lumoti va muallif ishlanmasi



Yuqoridagi diagramma malumotidan kurinib turibdiki, 2024 yil III chorak davomida byudjetga tushgan soliq turlarining ulushida ham qo`shilgan qiymat solig`ining ulushi yuqoriligini ko`rsatmoqda. Shunday ekan, mamlakatimizda va boshqa chet mamlakatlarda ham bezijga qo`shilgan qiymat solig`iga alohida etibor qaratilmaydi.

Byudjet-soliq amaliyoti natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, byudjetga soliq tushumlari tarkibida qo`shilgan qiymat solig`i muhim o‘rin egallaydi. Mazkur soliq bilvosita soliqlar turiga kiradi va dunyoning ko‘plab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarida amal qiladi.

Jahon soliq amaliyoti tajribalarining tahlili hozirgi kunda soliqqa tortish tizimining uch turi hamda xorijiy mamlakatlar soliq tizimining uch xil modeli amal qilayotganligini tasdiqlaydi.

Jahon soliq amaliyoti soliqqa tortish tizimining uch turi hamda xorijiy mamlakatlar soliq tizimining uch xil modeli[6]

O‘zbekistonda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash jarayoni biznes va iste`molchilar uchun bir nechta jihatdan ta`sir qiladi. Qo`shilgan qiymat solig`i o‘zi – bu mahsulot yoki xizmatlar qiymatiga solinadigan soliq bo‘lib, uning oxir-oqibat qoplab berilishidan quyidagilar manfaatdor bo‘lishi mumkin:

1. **Davlat byudjeti**: QQS ning asosiy qoplab berilishidan davlat manfaatdor bo‘ladi, chunki to‘langan soliq davlatning byudjetiga tushadi. Bu mablag‘lar ijtimoiy loyihalar, infratuzilma, ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalarda ishlatiladi.
2. **Ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchilar**: QQS o‘zgarishidan ko‘ra, soliqni hisoblash va qaytarish jarayonlarida, aynan soliqni qonuniy tarzda kamaytirish va soliqdan imtiyozlar olish imkoniyatlari biznes uchun foydali bo‘lishi mumkin.

[6] Muallif ishlanmasi

3. **Iste`molchilar**: QQS to‘langanda mahsulot va xizmatlar qiymati ortadi, ammo soliq stavkalarining adolatli va to‘g‘ri qo‘llanishi iste'molchilar uchun zararni kamaytiradi. Shuningdek, QQS qaytarilishi (masalan, eksportchilar uchun) mahsulot va xizmatlarning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Umumiy qilib aytganda, qo‘shilgan qiymat solgi to‘lanishi jarayonida davlat, ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar va iste'molchilar o‘zaro manfaatlarga ega bo‘ladi. Lekin oxir-oqibatda to‘langan soliqdan asosiy manfaat – davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. https://gov.uz/oz/soliq/news/view/10323
2. https://gov.uz/oz/soliq/news/view/28091
3. https://gov.uz/oz/soliq/news/view/28719
4. https://inscience.uz/index.php/socinov/article/downlo%E2%80%A6/
5. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1061951804000151/

KORXONALARDA KARYERANI BOSHQARISHNI TASHKIL ETISH

Kurbanova Shaxnoza Yuldashboyevna
Oriental universiteti Moliya va menejment kafedrasi o‘qituvchisi,
Yusupov Akrom Abdumalikovich
Iqtisodiyot va AT yo‘nalishi 3 bosqich 201-guruh talabasi

ANNOTATSIYA:Ushbu maqolada korxonalarda karyera boshqaruvining ahamiyati va uni samarali tashkil etish usullari haqida so‘z yuritiladi. Karyera boshqaruvi tizimi xodimlarning professional rivojlanishi va tashkilotning umumiy muvaffaqiyatiga hissa qo‘shadi. Maqolada karyera rejalashtirish, treninglar, mentorlik, motivatsiya tizimlari va karyera o‘tish jarayonlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, texnologik yordam va innovatsion yondashuvlarning karyera boshqaruviga qanday ta'sir ko‘rsatishi ko‘rib chiqilgan. Karyera boshqaruvining strategik roli va korxonalarda uning amalga oshirilishi bo‘yicha tavsiyalar taqdim etilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Korxona, sanoat korxonasi,karyera boshqaruvi, xodimlarning rivojlanishi, motivatsiya, karyera rejalashtirish, karyera o‘tish, malaka oshirish, mentorlik, innovatsiyalar, karyera imkoniyatlari, tashkilot strategiyasi.

Har bir tashkilot o‘z xodimlarining professional o‘sishini qo‘llab-quvvatlash va ularning karyerasini muvaffaqiyatli boshqarish orqali umumiy muvaffaqiyatga erishadi. Karyera boshqaruvi tizimi, xodimlarning karyera yo‘llarini rejalashtirish, malakalarini oshirish, yangi imkoniyatlar yaratish va ularning motivatsiyasini oshirishga yo‘naltirilgan jarayonlar majmuasini tashkil etadi. Bu jarayonlar korxonaning muvaffaqiyatli va uzoq muddatli faoliyatini ta'minlash uchun muhimdir.

Karyera Boshqaruvining Asosiy Jarayonlari

1**. Karyera rejalashtirish** Karyera rejalashtirish – bu xodimlarning kelajakdagi professional maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan jarayon. Bu jarayon xodimlar uchun o‘z malakalarini oshirish va yangi ko‘nikmalarni egallash imkoniyatlarini yaratadi. Korxonalar, o‘z xodimlariga professional rivojlanish yo‘lini belgilashda yordam berish uchun treninglar, seminarlar va maslahat xizmatlarini taqdim etadilar.

2. **Motivatsiya va rag‘batlantirish tizimi** Xodimlarning motivatsiyasini oshirish va ularni rag‘batlantirish – karyera boshqaruvining eng muhim qismlaridan biridir. Korxonalar, xodimlarga mukofotlar, bonuslar va boshqa motivatsion imkoniyatlar taqdim